

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

RO'YXATGA OLINDI
№ ym – 343 - 5A340606 – 2.08
« 1 » Iyul **2003 y**

«TASDIQLANDI»
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

« 8 » Iyul **2003 y**

LOYIHA - SMETA ISHI
fanidan
DASTUR

**Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»
ta'lim sohasidagi 5A3406012 - «Kapital qo'yimalarni
moliyalashtirish va ularning monitoringa»
magistratura mutaxassisligi uchun**

Tuzuvchilar: dots. Jo'raev A. S,
dots. Karimov N. G',
k.o'q. Nosirov E. I.

Taqrizchilar: dots. Boboqulov T. I.,
k.o'q. Mamatov B. S.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar asosan ishlab chiqarish salohiyatini o'stirishga qaratilgan. Buning uchun esa kapital qo'yimalardan samarali foydalanish kerak bo'ladi. Kapital qo'yimalarning samaradorligi o'z navbatida loyiha-smeta hujjatlari sifati va ularning o'z vaqtida tayyorlanishiga bog'liqdir. Loyiha-smeta hujjatlarida fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari o'z aksini topishi va ular yordamida ishlab chiqarishdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar yuqori darajaga ko'tarilishi kerak. Shuning uchun ham bugungi kunda kapital qurilishni o'z vaqtida tuzilgan va tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari bilan ta'minlanganligini va bu hujjatlarning sifati, uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini banklar tomonidan nazorat qilishning yangi usullarini qo'llash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda, «Loyiha-smeta ishi» fanining asosiy maqsadi bank nazoratini olib borish uchun magistrantlarga loyiha va smeta hujjatlarini tuzish hamda tasdiqlash tartibini, qurilish ishlab chiqarishini to'g'ri tashkil etish asoslarini o'rgatish hisoblanadi.

Экономические реформы, проводимые сегодня в Республике Ўзбекистан, направлены в основном на развитие производства. А для этого необходимо эффективно использовать капитальные вложения. Эффективность капитальных вложений во многом зависит от своевременной разработки и качества проектно-сметной документации. В проектно-сметной документации должны находить отражение новейшие достижения науки и техники, позволяющие достигнуть наиболее высокие технико-экономические показатели производства. Вот почему исключительно важное значение в настоящее время приобретают вопросы совершенствования методов банковского контроля за своевременным обеспечением строек проектно-сметной документацией, за качеством этой документации и определяемыми ею технико-экономическими показателями. Исходя из этого, основной целью курса "Проектно-сметное дело" является изучение правила составления и утверждения проектно-сметных документов, основ правильной организации строительного производства.

Present day economic reforms performed in Republic of Uzbekistan are directed basically on development of production potential.

Development of production requires an effective organization of capital investment. And efficiency of a capital investment generally depends on quality of the project estimation documentation and its duly development. In the projects and estimates it should find reflection of advanced achievements of a science and engineering, which allow achieving the highest technical and economic parameters of production. That is why extremely important meaning got by questions of perfection of the bank control methods on provision of constructions with beforehand made and authorized project estimation documentation, on quality of this documentation and determined in economic parameters. Proceeding from this, the basic tasks of the discipline "Essentials of Project Estimation Business" is carry out the bank control the magistrates should know the order of drawing up both statement of the projects and estimates, bases of correct organization of construction manufacture.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma)

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarida ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama kilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar asosan ishlab chiqarish salohiyatini o'stirish va rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida loyiha-smeta hujjatlarining sifati va o'z vaqtida tayyorlanishiga bog'lidir. Shuning uchun ham loyiha-smeta hujjatlari sifati va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini bashelar tomonidan nazorat qilishning yangi usullarini qo'llash masalalari o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

«Loyiha-smeta ishi» fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash hamda tuzish, loyihalarni tayyorlash asoslarini, shuningdek, investitsiya loyihalarini tayyorlash, ularning ekspertizasini tashkil etish kabi vazifalarni o'rgatishdan iborat. Bu maqsadlardan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi magistrantlarga investitsiya loyihalarini baholash, ular bo'yicha moliyaviy qarorlar qabul qilish, texnikaviy-iqtisodiy asoslashlarni ishlab chiqish bosqichlari, loyihalarni moliyalashtirish, kreditlash va investitsiya loyihalarini amaliyotga tadbiiq etilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu fan bilan birgalikda magistrantlar «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringa», «Investitsiya loyihalari tahlili», «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi», «Investitsion tahlil» va boshqa fanlarni o'qib o'rganishi, ular asoslarini o'zlashtirib olishlari zarur bo'ladi.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

Mazkur fanni o'rganish jarayonida magistrantlar tegishli bilimga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

«Loyiha-smeta ishi» o'quv fani bo'yicha magistrantlar quyidagi masalalarga doyr bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

- loyihalarning mohiyati, turlari va ularning yo'naltirilishi;
- loyiha-qidiruv tashkilotlari faoliyati, loyihalashtirish bo'yicha topshiriqlar va ularning tuzilishi, loyihalarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi, loyihalashtirish bosqichlari, loyihalarning tarkibi va ishlab chiqish tartibi;
- loyihaning texnikaviy rejasi, texnikaviy hisob-kitoblar, loyihani dastlabki texnikaviy-ishchisodiy asoslash;
- investitsiyalarni loyihalash jarayoni va investitsiya oldi izlanishlarini o'tkazish tartibi;
- loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish talablari va mezonlari;
- loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha asosiy tushunchalar va atamalarni, smeta baholarini shakllantirishning umumiy tamoyillari va xususiyatlari;
- qurilish va qurilish-montaj ishlarining tarkibi va tuzilishi, investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning tuzilishi;
- qurilish smeta qiymatini aniqlashning me'yoriy asoslari;
- loyihalarni ekspertiza qilish tartibi;

Magistrantlar investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazishning asosiy mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha tasavvurga ega bo'lishlari, bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishlari kerak. Shuningdek, ular kompyuterlardan va boshka

zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham puxta o'zlashtirishlari lozim.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni sllishtirish usullarini, magistrantlarning mustaqilligini ga'minlovchi o'quv jarayonini, bilim va ilmga bo'lgan qiziqishini tashkil qilish bilan birga ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish kerak.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan magistrantlar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar olishadi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlashadi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadilar.

Mashg'ulotlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

O'uv rejasida fanga 120, shu jumladan, 40-ma'ruza, 40-amaliy, 40-mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza, keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha magistrantlarning mustaqil o'rganishi uchun alohida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashda og'zaki yoki yozma usullari qo'llaniladi.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimini baholash o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig'ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishda har bir semestrda ikki marotaba joriy, ikki marotaba oraliqva bir marotaba yakuniy baholash amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida, yakuniy baholash esa faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsiy va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Kuyidagilar «Loyiha-smeta ishi» fanini o'qitishning kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- o'quv maqsadlari va vazifalar katalogini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd, kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- rejalashtirilgan maqsadlarini bajarilishini baholash.
- Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning
- mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:
- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- magistrantlarga o'z bilimini o'zi baholaydigan sharoitni yaratib berish;
- magistrantlarning bilimni tayanch iboralari asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish va h.k.

Bu fanni o'qitishda investitsiya sohasiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, loyihalarni moliyaviy-iqtisodiy baholash bo'yicha banklarda qo'llanilayotgan kompyuter dasturlaridan, jumladan, YuNIDO uslubiyoti va boshqa yo'riqnomalar, shuningdek,

banklarning investitsiya loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyanomalaridan foydalanish mumkin.

Ish dasturini tuzishga doir uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan «Kapital qo'yimalarni moliyalashtirish va ularning monitoringa» mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlarga ikkinchi semestrda «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kompleks ekspertiza qilish» mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlarga uchinchi semestrda o'tilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda xukumat qarorlari, kapital qurilish sohasi bog'liq bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan, sa'atlardan foydalanish lozim.

«Loyiha-smeta ishi» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Magistrantlarning o'quv jarayonida auditoriyada olgan bilimlarini o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholash tavsiya etiladi.

2. FAN DASTURI

«Loyiha-smeta ishi» fani bo'yicha ma'ruza mavzulari:

Fanning predmeti va mazmuni. Loyihalashtirish asoslari va mazmuni

Fanning predmeti va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Fanning predmeti, vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Loyihalarning mohiyati va ularning mazmun jihatidan farqlanadigan o'ziga xos jihatlari. Loyihalarni turkumlash. Loyixalar menejmenti.

Loyihalarning shakllanishi va ularning asosiy g'oyasi

Loyihaning g'oyasi. Loyihaning tashabbuskorlari. Loyihalash tarixi. Texnikaviy-iqtisodiy asoslash. Tayyorgarlik ko'rish izlanishlari va ular bilan boelits tsidiruv ishlari tushmati.

Investitsiya oldi tadqiqotlari va investitsiyalarni loyihalash tsikllari

Investitsiyalarni loyihalash jayorayoni va investitsiya oldi tadqiqotlari. Investitsiyalashdan oldingi faza. Investitsion imkoniyatlar bo'yicha tadqiqotlar. Dastlabki texnikaviy-iqtisodiy asoslash. Loyiha bo'yicha baholash xulosasini tayyorlash. Investitsiyalash fazasi. Loyihani ekspluatatsiya qilish fazasi. Loyiha ramkasi. Investitsiya oldi tadqiqotlaridagi ko'rsatkichlar bazasi. Mutsobil loyixalar tanlovi va tekshiruv. Xarajatlar, tushumlar, daromadlar, tasodif holatlar va inflyatsiya.

Reabilitatsiya va kengaytirish loyihalari

Tiklash (reabilitatsiya) bo'yicha izlanishlar. Kengaytirish. ijkoniyatlari bo'yicha izlanishlar.

Loyihalarni tuzish va amalga tadbiiq etishdagi infratuzilmalar

Institutsional infratuzilmalar va maslahat xizmatlari. Ma'lumotlarni elektron qayta ishlash. Loyixalarning texnikaviy-itstisodiy jixatdan asoslanishi.

Investitsiya bozori tahlili va marketing kontseptsiyasi

Loyiha bo'yicha marketing izlanishlarini olib borish. Investitsiya bozori tahlili. Loyiha strategiyasi sxemasi. Marketing kontseptsiyasi sxemasi. Marketing izlanishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

Loyiha bo'yicha xom ashyo va keltiriladigan materiallar

Xom ashyo va materiallarni turkumlash. Xom ashyoga bo'lgan eerpiyojlar va ularni rejalashtirish. Zahiralar va ularning ta'minoti. Keltiriladigan materiallar marketinga va ularning dasturi. Xom ashyo va keltiriladigan materiallar xarajatlari.

Loyihani tatbiiq etish joyi, qurilish maydoni va atrof muhit

Loyihani tatbiq etish joyining tahlili. Tabiiy atrof-muhit. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirni baholash. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat. Infratuzilma holati. Joylashtirishning mutloq tanlovi. Qurilish maydoni tanlovi. Xarajatlarni baholash.

Loyihalashtirishda texnologiyalarni tanlash

Ishlab chiqarish dasturi va korxonaning ishlab chiqarish quvvati. Texnologiya tanlovi. Texnologiya xaridi va texnologiyani etkazish. Korxonada faoliyatining to'liqsiz rejalashtirilishi va asosiy loyiha-konstruktorlik ishlari. Mashina va uskunalarni tanlovi. Fuqarolik qurilishi. Texnikaviy xizmat bo'yicha talablar. Umumiy investitsiya xarajatlarini baholash.

Loyihaning tashkiliy sxemasi va korxonada boshqaruvini tashkil etish

Tashkiliy sxema va korxonada boshqaruvini tashkil etish. Loyihalashtirishni tashkil etish. Ustama xarajatlarni va ularni rejalashtirish.

Mehnat resurslarini rejalashtirish

Ishchilar kategoriyalari va funktsiyalari. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit. Loyiha bilan bog'liq bo'lgan zaruriyatlarni. Personal ta'minoti va uni yollash. Ishchilarni o'qitish rejasi. Xarajatlarni baholash.

Loyihani amalga oshirish byudjetini rejalashtirish va tuzish

Loyihani amalga oshirishni rejalashtirish maqsadlari. Loyihalarni amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha tadbirlar. Loyihalarni amalga oshirish grafigini tuzish. Amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish.

Investitsiya loyihalari ekspertizasi

Ekspertiza so'zining iqtisodiy mohiyati. Ekspertizaning tashkiliy ujjatlari. Loyihalarni ekspertizadan o'tkazish tartibi.

3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI

Loyihalashtirish asoslari va mazmuni

Loyihalarning mohiyati va ularning mazmuni jihatidan farqlanadigan o'ziga xos jihatlari. Loyihalarni turkumlash. Loyihalarning menedjmenti.

Loyihalarning shakllanishi va uning asosiy g'oyasi

Loyihaning g'oyasi. Loyihaning tashabbuskorlari. Loyihalash tarixi. Texnikaviy-iqtisodiy asoslash. Tayyorgarlik ko'rish izlanishlari va ular bilan bog'liq qidiruv ishlari qiymati.

Investitsiya oldi tadqiqotlari va investitsiyalarni loyihalash tsikllari

Investitsiyalarni loyihalash jarayoni va investitsiya oldi tadqiqotlari. Investitsiyalashning oldingi fazasi. Investitsion imkoniyatlar bo'yicha tadqiqotlar. Dastlabki texnikaviy-iqtisodiy asoslash. Loyiha bo'yicha baholash xulosasini tayyorlash. Investitsiyalash fazasi. Loyihani ekspluatatsiya qilish fazasi. Loyiha ramkasi. Investitsiya oldi tadqiqotlaridagi ko'rsatkichlar bazasi. Mutsobil loyishchalar tanlovi va tekshiruv. Xarajatlarni, tushumlar, daromadlar, tasodif holatlar va inflyatsiya.

Reabilitatsiya va kengaytirish loyihalari

Tiklash (reabilitatsiya) bo'yicha izlanishlar. Kengaytirish imkoniyatlari bo'yicha izlanishlar.

Loyihalarni tuzish va amalga tadbiiq etishdagi infratuzilmalar

Institutsional infratuzilmalar va maslahat xizmatlari. Ma'lumotlarni elektron qayta ishlash. Loyihalarni texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslanishi.

Investitsiya bozori tahlili va marketing kontseptsiyasi

Loyiha bo'yicha marketing izlanishlarini olib borish Investitsiya bozori tahlili. Loyiha strategiyasi sxemasi. Marketing kontseptsiyasi sxemasi. Marketing izlanishlari bilan bog'lik bo'lgan xarajatlar.

Loyiha bo'yicha xom ashyo va keltiriladigan materiallar

Xom ashyo va materiallarni turkumlash. Xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlar va ularni rejalashtirish. Zaxiralar va ularning ta'minoti. Keltiriladigan materiallar marketingi va ularning dasturi. Xom ashyo va keltiriladigan materiallar xarajatlari.

Loyihani tatbiiq etish joyi, qurilish maydoni va atrof-muhit

Loyihani tatbiiq etish joyining tahlili. Tabiiy atrof-muhit. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirni baholash. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat. Infratuzilma holati. Joylashtirishning mutloq tanlovi. Qurilish maydoni tanlovi. Xarajatlarni baholash.

Loyihalashtirishda texnologiyalarni tanlash

Ishlab chiqarish dasturi va korxonaning ishlab chiqarish quvvati. Texnologiya tanlovi. Texnologiya xaridi va texnologiyani etkazishi. Korxonada faoliyatining to'liq rejalashtirilishi va asosiy loyiha-konstruktorlik ishlari. Mashina va uskunalarda tanlovi. Fuqarolik qurilishi. Texnik xizmat bo'yicha talablar. Umumiy investitsiya xarajatlarini baholash.

Loyihaning tashkiliy sxemasi va korxonada boshqaruvini tashkil etish

Tashkiliy sxema va korxonada boshqaruvini tashkil etish. Loyihalashtirishni tashkil etish. Ustama xarajatlar va ularni rejalashtirish.

Mehnat rissurklarini rejalashtirish

Ishchilar kategoriyalari va funktsiyalari. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit. Loyiha bilan bog'liq bo'lgan zaruriyatlar. Personal ta'minoti va uni yollash. Ishchilarni o'qitish rejasi. Xarajatlarni baholash.

Loyihani amalga oshirish byudjetini rejalashtirish va tuzit

Loyihani amalga oshirishni rejalashtirish maqsadlari. Loyihalarni amalga tadbiiq etish bosqichlari. Loyihalarni amalga oshirish grafigini tuzish. Amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish.

Investitsiya loyihalari ekspertizasi

Ekspertiza so'zining iqtisodiy mohiyati. Ekspertizaning tashkiliy hujjatlari. Loyihalarni ekspertizadan o'tkazish tartibi.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

O'quv jarayonida ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan ham foydalanish tavsiya etiladi.

«Loyiha-smeta ishi» fanini o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash bosqichlarini o'rganish bo'yicha chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlarga "Loyiha-smeta ishi" fanini o'rganishda turli axborot vositalaridan, shu jumladan, Internet tizimidagi quyidagi sayt va elektron pochtalardan ham foydalanish tavsiya etiladi:

<http://www.oakinv.com/>
<http://www.hondurasinfo.hn/>
<http://farmbill.farmbill.unl.edu/>
<http://www.eagleinvsys.com/>
<http://www.Apexvc.com>
<http://www.wisebuy.co.uk/>
<http://subscribe.ru>
<http://www.bimk.kiev.ua>
<http://tininfo.bigural.ru>
<http://www.bashkortostan.ru>
<http://vuirute.iessl.ru>
<http://tutby>
<http://www.zelenograd2001.narod.ru>
<http://econsultant.ru>
<http://megapolis.kharkov.ua>
<http://www.rada.kiev.ua>
<http://alyona.nns.ru>
<http://www.hse.ru>
<http://www.samara.ru>
<http://www.vestona.ru>
<http://www.officemart.ru>
<http://www.chtivo.ru>
<http://bdg.preess.net.by>

Shuningdek, magistrantlarga Davlat arxitektura-qurilish qo'mitasi hamda investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazuvchi davlat organlarining amaliy materiallaridan, Xorijiy investitsiyalar bo'yicha Agentlik, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, "O'zbekinvest" eksport-import milliy su gurma kompaniyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimediya ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. O'ZLASHTIRISH NA30RATI

Magistrantlarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq baholash hamda yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi.

Joriy va oraliq baholashga ajratilgan ballar miqtsori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholashga esa 30 foizi miqdorida belgilangan.

"Loyiha-smeta ishchi" fanidan magistrant to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 80 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 28, oraliq baholashga 28, yakuniy baholashga 24 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholashga belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida qo'yiladi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

86 - 100 foizgacha (68,8 balldan 80 ballgacha) - "a'lo";
71 - 85 foizgacha (56,8 balldan 68,7 ballgacha) - "yaxshi";
55 - 70 foizgacha (44 balldan 56,7 ballgacha) - "qoniqarli";
55 foizdan kam (0 dan 43,9 ballgacha) - "qoniqarsiz".

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekistan Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, 1998.30 dekabr.
2. O'zbekistan Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida» gi Qonuni. /Xalq so'zi/ 1998. 20 may.
3. O'zbekistan Respublikasining «Xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish chora-tadbirlari va uning kafolatlari to'g'risida» gi Qonuni. /Xalq so'zi/ 1998. 21 may.
4. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoadi. - T.: O'zbekiston, 1999.
6. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O dopolnitelnix merax po stimulirovniyu realizatsii investitsionnix proektov». /Narodnoe slovo/ 1998. 14 yanvarya.
7. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O merax po sovershenstvovaniyu realizatsii proektov s inostrannimi investitsiyami». /Narodnoe slovo/ 1998. 9 fevralya.
8. Ukaz Prezidenta Respubliki «O dopolnitelnix stimulax i lgotax, predostavlyaemix predpriyatiam s inostrannimi investitsiyami». /Narodnoe slovo/ 1998. 27 marta.
9. Protokol zasedaniya komissii po reformirovaniyu ekonomicheskoy, finansovoy i bankovskoy sfer, razvitiyu i ukrepleniyu rinochnix printsipov i mexanizmov Mejvedomstvennogo koordinatsionnogo soveta po reformirovaniyu i investitsiyam pri Prezidente Respubliki O'zbekistan. /Narodnoe slovo/ 2001. 21 iyulya.
10. Prezident Islom Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Halq so'zi, 2003 yil, 18 fevral.
11. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. - T.: Moliya, 2000.
12. Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002.
13. Angelidi M. S, Karimov N. G. Analiz investitsionnix proektov: Uchebnoe posobie. - T.: TFI, 2000.
14. Abryutina M.S., Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiy: Uchebno-prakticheskoe posobie. - M.: Delo i Servis, 2001.

15. Bogatin Yu.V., Shvandar V.A.. Otsenka effektivnosti biznesa i investitsiy. - M.: YuNITI, 1999.
16. G'ozibekov D.G., Angelidi M.S. Investitsionnaya deyatel'nost' pered vxojdeniem v rinochnuyu ekonomiku - T., 1991.
17. G'ozibekov D.G., Angelidi M.S., Karimov N.G.. Finansovoe obespechenie investitsiy v ekonomiku O'zbekistana. - T., 1995.
18. G'ozibekov D.G., Sobirov O.Sh. Lizing i ego razvitie v O'zbekistane. - T.: Moliya, 2001.
19. Igoshin N.V. Investitsii. - M.: YuNITI, 1999.
20. Kovalev V.V. Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 2000.
21. Radionova SP., Radionov N.V.. Otsenka investitsionnix resursov predpriyatii. - M.: Alfa, 2001.
22. Karp M.V., Shabalin E.M., Eriashvili N.D., Istomin O.B.. Lizing i ego ekonomicheskie i pravovye osnovy. - M.: YuNITI-Dana, 2001.
23. Kostyunina G.M., Liventsev N.N. Mejdunarodnaya praktika regulirovaniya inostrannix investitsiy. - M.: Ankil, 2001.
24. Sergeev I.V., Veretennikova N.I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2000.
25. Endovytskiy D.A.. Kompleksniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatel'nosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Gusakov B.I. Ekonomicheskaya effektivnost' investitsionnoy sobstvennosti. - M.: Finansi, 1998.
2. Sergeev A.A. Ekonomicheskie osnovy biznes planirovaniya. - M.: YuNITI-Dana, 1999.
3. Lojnikov A.V. Investitsionniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatel'nosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.
4. Margolin A.M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2001.
5. Moskvina V.A. Kreditovanie investitsionnix proektov. - M.: Finansi i statistika, 2001.